

# T.N.Qori Niyoziy nomidagi Oʻzbekiston Pedagogika fanlari ilmiy tadqiqot instituti

# UZLUKS Z TA'LIM

#### ILMIY-USLUBIY JURNAL

2020, Maxsus son

# DJURAYEV Risbay Bosh muharrir

Jurnal 2001 yildan nashr qilina boshlangan.

Oʻz MAAdan 2007 yil 3-yanvarda № 0101-tartib raqami bilan qayta poʻyxatdan oʻtgan.

Jurnalda e'lon qilingan maqolalardan iqtibos keltirilganda «Uzluksiz ta'lim» jurnalidan olinganligi koʻrsatilishi lozim.

## Tahrir hay'ati:

Sherzod SHERMATOV

Uzoqboy BEGIMQULOV

Alisher UMAROV

Nargiza RAXMANQULOVA

Xolboy IBRAGIMOV Shavkat QURBONOV

Roxatoy SAFAROVA Islom ZOKIROV

Dono GʻANIYEVA Lobar QARAXANOVA

## TOXPUDUAT

### MOHSUJU:

100027, Toshkent sh., Furqat koʻchasi, 174-uy.

#### O'zPFITI

Tel.: (71)-245-92-34

(93)-503-52-07

e-mail: uzluksiztalim\_jurnal@mail.ru liya\_2305@mail.ru

#### TA'LIM MAZMUNI UZLUKSIZLIGI

3 O.X.Xamidov

Oliy ta'lim va maktabgacha ta'lim muassasalari integatsiyaning asosiy tendensiyalari va muammolari

9 O.R. To 'xsanov

Uzluksiz ta'lim tizimida sharq mutafakkirlarining «ilm olmoq» ta'limoti mohiyati

13 <u>G.O.Hasanova</u>
Maktabgacha ta'lim tashkillotlarida innofatsion pedagogik texnologiyalarning qo'llanishi

17 M.M.Nigmatova

Mashg'ulotlardan zamonaviy o'quv vositalaridan foydalanish

21 G. Kamilova, G. Kurbonova

Maktabgacha ta'lim muassasalarida ekologik tarbiyani tashkil etishda integrativ yondashuv

25 Z.B.Jalilov, N.H.Azimova, S.Rahmonova

Ta'lim muassasalarida estetik tarbiyani amalga oshirishning pedagogik shart-sharoitlar

29 S.S.Avezov

Oʻqituvchi nutq madaniyati kompetentligi

33 G.U.Umarova

Bolalarning iqtisodiy bilimdonligini rivoshlantirishda matematik tasavvurlarni shakllantirish mashgʻulotlarning ahamiyati

38 D.Sh.Mirzayeva

Maktabgacha ta'lim uzluksiz ta'limning poydevori

42 D.Sh. Eshova, N.N. Hamroyeva

Bolalar nutqini oʻstirishda oʻyinlar va sahnalashtirish faoliyatining ahamiyati

46 M.Y.Ro'ziveva, Ch.T.Xemraveva

Ta'limda xalq ertaklarining tarbiyaviy ahamiyati va ularni o'rgatishning innovatsion usullari

#### **MA'NAVIY TARBIYA**

50 G.Sh.Rahmonova

Shaxs kamolotida boʻlajak oʻqituvchining ma'naviy-axloqiy va pedagogik kompetentsiyalarni shakllantirish

55 M.B.Sharipova

Oʻqituvchi-yoshlar tarbiyasida oʻlmas an'ana marosimlarning ahamiyati

59 *Г.Б.Эргашева* 

Личностное отношение условий учебной и профессиональной деятельности учителя

64 *С.Д.Ниязова* 

Роль игры в экологическом образовании дошкольников

69 <u>Л.Г.Расулова</u>

Формирование элементарных математических представлений у дошкольников через дидактические игры

74 Sh.Sh.Nizomova

Maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini rivojlantirishda tovus tizimini shakllantirish

78 **И.Х.Ражабова** 

Особенности организации и проведения дидактических игр с детьми старшего дошкольного возраста

84 *Н.А.Хамраева* 

Методы использования инновационных технологий на уроках русского языка и литературы

90 N.S. Turdiyeva, Z.M. Ashurova

O'z-o'zini tarbiyalash borasidagi ajdodlarimiz qarashlari

#### KASBGA YO'NALTIRISH VA PSIXOLOGIK XIZMAT

94 *Г.Д.Ниязова, Н.Икрамова* 

Роль методической службы в развитии профессиональной компетентности педагога ДОУ

99 L.T.Ochilova, L.Ch.Rajabova

Matematika mashgʻulotlarida didaktik oʻyinlardan foydalanishning ahamiyati

103 F.F.Nurullayev, N.A.Ukramova

Oilada sogʻlom, man'aviy-axlogiy muhit

107 Sh.H.Qulieva, A.A.To raev, F.Sh.Avezova

Tizimni yondashuv asosida bo'laiak o'qitiychilarni kasbiy-pedagogik tayyorgarligini shakllantirish



#### BOLALARINING IQTISODIY BILIMDONLIGINI RIVOJLANTIRISHDA MATEMATIK TASAVVURLARNI SHAKLLANTIRISH MASHGʻULOTLARINING AHAMIYATI

G.U.UMAROVA.

BuxDU katta oʻqituvchisi

Maktabgacha ta'lim tizimida yosh avlodning matematik tasavvurlarini shakllantirish va rivojlantirish asosiy oʻrinda turadi. Maqola metodologik mazmunga ega boʻlib, unda maktabgacha yoshdagi bolalarning iqtisodiy bilimdonligini shakllantirishning metodik xususiyatlari ta'kidlab oʻtiladi.

Tayanchsoʻzlar: biznesmen, tovar, valyuta, bank, narx, reklama, barterpul, ogʻzakihisob, sanoq.

Формирование и развитие математического воображения подрастающего поколения занимает центральное место в системе дошкольного образования. Статья имеет методологическое содержание, в котором подчеркиваются методологические особенности формирования экономической грамотности детей дошкольного возраста..

**Ключевые слова:** бизнесмен, товар, валюта, банк, цена, реклама, бартер, деньги, словесный счет, счет

The formation and development of mathematical imagination of the younger generation is central to the system of preschool education. The article has a methodological content, which emphasizes the methodological features of the formation of economic literacy of preschool children.

**Key words:** businessman, product, currency, bank, price, advertising, barter, money, verbal account, account.

Darhaqiqat, bugungi kunda jamiyatga har tomonlama rivojlangan, ma'naviy etuk, iqtisodiy jihatdan bilimdon, teran fikrlaydigan, yuksak iqtisodiy bilim va madaniyatga ega boʻlgan yoshlarni etishtirish muhim ahamiyatga ega. Chunki har bir inson bugungi bozor iqtisodiyoti munosabatlari rivojlanib borayotgan bir sharoitda, uni oʻrab turgan iqtisodiy voqelikni anglash, tahlil qilish hamda shunga mos harakatlarni amalga oshirish koʻnikmasiga ega boʻlishi lozim. Bu bilim va koʻnikmalarning dastlabgi bosqichi maktabgacha ta'limda beriladi. Shuning uchun bolalar ongiga barcha turdagi oʻquv mashgʻulotlari tarkibida iqtisodiy bilim va tushunchalarni singdirish ehtivoji vujudga kelmoqda.

Maktabgacha iqtisodiy ta'lim jarayonida bola ilk bor kundalik iqtisodga oid atamalarni oʻrganadi. Bola iqtisodga oid bilimlarning inson hayoti uchun nihoyatda zarurligi, u barcha sohalarni oʻrganish uchun muhimligini his etishi lozim. Ular kundalik muloqotda iqtisodiy atamalardan foydalansalar, asta-sekin bu atamalar bolalar ongiga singib boradi.



Maktabgacha ta'limda bolalarning iqtisodga oid ilk tushunchalarini kengaytiriladi. Ijtimoiy turmushga bosqichma-bosqich moslashishni ta'minlash maqsadida bolalarga dastlabki iqtisodiy tushunchalarnи oʻrgatib, ularga zaruriy va hayotiy ehtiyojlar, jumladan, kiyinish, ovqatlanish va oʻyinga doir hamda yashash uchun zaruriy shart-sharoitlar yaratishga oid harakatlar haqida tushuncha beriladi.

Quyida maktabga tayyorlov guruhida iqtisodiy bilim berish maqsadida oʻtkazilgan mashgʻulot ishlanmasini keltiramiz.

Bog'cha bozori

Maqsad: «Bogʻcha bozori» oʻyini orqali iqtisodiy bilimni aniqlash va mustahkamlash. Biznesmen, tovar, valyuta, banq narh reklama, barter va boshqa iqtisodiy tushunchalarni kengaytirish. Mustaqil Oʻzbekistonning ravnaq, topishiga oʻz hissalarini qoʻshish, shu Vatanni sevishga, bilimdon inson boʻlib etishishga, ishbilarmon boʻlishga qiziqish uygʻotish.

Oʻyindan oldin beriladigan ishlar suhbatlar, kuzatishlar.

«Bank» va «Kiyim-bosh doʻkoni»ga, «Oziq-ovqatlar» doʻkoniga, meva bozoriga sayohat qilib, mahsulotlarning sifatli-sifatsizligini oʻrgatish, bolalar bilimlarini boyitish.

Kerakli jihozlar: tarozi, bozor narsalarini qoʻuyish uchun jovonlar, qoʻlda tikilgan, toʻqilgan oʻyinchoqlar, loy va qogʻozdan yasalgan meva va sabzavotlar, haqiqiy meva va sabzavotlar, oʻyinchoqlar, turli davlat pul birliklari, pul soladigan qutichalar, Afandi uchun milliy kiyimlar.

Mashg'ulotning borishi:

Xoʻja Nasriddin xomush yurib bolalarning oldiga keladi.

Tarbiyachi: Assalomu alaykum, Xoʻja Nasriddin, buncha xomush koʻrinasiz?

Xoʻja Nasriddin: Ey qizim, boshim qotib eshagimga uqtira-uqtira sudralib, oʻylanib kelayapman. Jahon bozoriga qanday borsak ekan? Nima bilan borsam ekan?

Tarbiyachi: Ie, Xoʻja Nasriddin, siz jahon bozoriga qanday borishni bilmaysizmi? Mana bu bolajonlardan soʻrang, qanday borishni aytib berishadi.

Xoʻja Nasriddin: Qani bolajonlar, nimada borsam boʻladi?

1-bola: Transport vositalari bilan boriladi.

2-bola: Samolyot bilan borsa boʻladi.

3-bola: Avtobus bilan boriladi.

4-bola: Vertolyot bilan, poezd bilan boriladi.

Xoʻja Nasriddin: Bularning hech qaysisi menda yoʻq.

Bola: Bobojon, sizning eshagingiz, tuyangiz, otingiz bor, ana shular bilan boravering.

Xoʻja Nasriddin: Qani bolajonlar, unday boʻlsa ketdik.

Hammalari birgalikda jahon bozoriga ketishadi. Bozorda bolalar meva-cheva, sabzavotlar sotib o'tirishadi.



Xoʻja Nasriddin: Ehe, buncha narsa koʻp, bularni kim yetishtirgan?

Bola: Bobojon, bularning hammasini biz, oʻz bogʻimizda yetishtirdik.

Xoʻja Nasriddin: Mana bu olmang qancha turadi, bolam?

Bola: 100 so'm, bobojon.

Xoʻja Nasriddin: Buncha qimmat ekan?

Bola: Qarang bobojon, chirigani yoʻq, kattakon, shirin olma, oling. Oʻzimiz yetishtirganmiz.

Xoʻja Nasriddin: hammasini uyda mazza qilib yeb yotavermaysizlarmi? Nima qilasizlar bularni sotib?

1-bola: Bularni sotib bogʻchamizga oʻyinchoqlar olamiz.

2-bola: Kitob, daftarlar olamiz.

3-bola: Qalam, ruchkalar olamiz.

Tarbiyachi: Oʻqish uchun kerakli boʻlgan yana nima olasizlar, bolajonlar? Bolalar: Sumka olamiz.

Xoʻja Nasriddin: Ie, hali sizlar oʻqishga ham bormoqchimisizlar, toʻxtanglar, men bir soʻz eshitgan edim. Sizlar uning ma"nosini aytib beringlarchi? Biznesmen degani kim boʻladi?

Bola: Ishbilarmon, tadbirkor yangi narsalar oʻylab topadigan, pul topar kishilar «biznesmen» deyiladi.

Xoʻja Nasriddin: Exe, men ham oʻylab-oʻylab eshagimga uqtirib uzoq shaharlarda, chet ellarda boʻldim. Biron narsa olamanmi, deb, lekin nima olishni, u nima deb atalishini bilmadim.

Tarbiyachi: Bolalar Xoʻja Nasriddin nima olmoqchi boʻlibdi?

Bolalar: Tovar.

Xoʻja Nasriddin: Tovar degani nima ekan?

Bola: Odamlar qoʻl mehnati bilan ishlangan, sotish uchun moʻljallangan, ma'lum qiymatga ega boʻlgan mahsulotlar «tovar» deyiladi.

Xoʻja Nasriddin: Ha-Ha, mana shu tovarni olaman deb boruvdim, hamyonimdan pullarni chiqarib bersam, sotuvchi pullarimni olmay qaytarib berdi.

Tarbiyachi: Bolajonlar nega sotuvchi pullarni olmadi ekan?

Bola: Opajon, chunki har bir davlatning oʻz pul birliklari boʻladi, bu valyuta deviladi.

Tarbiyachi: Bolajonlar sizlar pul birliklarini bilasizlarmi?

Bolalar: Albatta bilamiz.

Tarbiyachi: Qani kim aytadi? Oʻzbekistonning valyutasi nima deyilar ekan? 1-bola: Soʻm.

2-bola: Qozogistonda - tanga. Turkmanistonda - manat. Rossiyada - rubl'.

3-bola: Hindistonda - rupiya. Amerikada - dollar.

Xoʻja Nasriddin: Xa, bilagʻon bolajonlar, ana shuning uchun men hech



narsa ololmay yurdim va bank degan joyga bordim.

Tarbiyachi: Bolajonlar, bank nima oʻzi?

Bola: Vaktincha pullarni bir joyga toʻplab quyadigan, oltin va chet el valyutalarini almashtirib beradigan joy «bank» deyiladi.

Tarbiyachi: Ana shu bankni kim boshkaradi?

Bola: Bankni boshqaruv raisi boshqaradi.

Xoʻja Nasriddin: Ha, bankda pullarni almashtirib oldimda bir doʻkonga kirib, eng arzon chopondan 2 ta oldim va bittasini darrov kiyib oldim. Ammo hech qancha vaqt oʻtmay, choponning rangi uchib ketdi, iplari soʻkilib ketdi. Endi hech narsaga yaramasa kerak.

Tarbiyachi: Bolajonlar, nega shunday bo'ldi ekan?

Bola: Chunki bobojon, siz arzon narxda chopon oldingiz. Arzon tovar sifatsiz boʻladi.

Tarbiyachi: Bolalar, Xoʻja Nasriddinni bu holatdan qutqarishga yordam beramizmi?

Bolalar: Albatta yordam beramiz.

Tarbiyachi: Xoʻja Nasriddin, siz hali bilmaysiz-mi, Oʻzbekiston mustaqil davlatku, buni mana bu bolajonlardan soʻrasangiz ham aytib beradilar.

Xoʻja Nasriddin: Bolajonlar, Oʻzbekiston kan-day davlat ekan, bilasizlarmi? Bolalar: Albatta bilamiz. Oʻzbekiston mustaqil davlat, u oʻzini 1991 yil 1 sentyabrda mustaqil davlat deb e'lon qildi.

Tarbiyachi: Bolalar shu mustaqil davlatning Prezidenta kim, bilasizlarmi?

Bolalar: Albatta bilamiz. Mustaqil davlatimizning birinchi Prezidenta Islom Abdugʻanievich Karimov.

Tarbiyachi: Oʻzbekiston qanday davlat boʻlishini xohlaysizlar?

Bolalar: Boy-badavlat, iqtisodiy tomondan rivojlangan davlat bulishini xohlaymiz.

Xoʻja Nasriddin: Raxmat bolajonlar, sizlar mening savollarimga toʻgʻri javob berdingizlar. Xozir men sizlarga olmalar, konfetlar olib beramanda, hayvonot bogʻiga sayrga olib boraman.

Tarbiyachi: Bolalar hayvonot bogʻiga sayrga boramizmi?

Bolalar: Albatta opajon, boramiz.

Tarbiyachi: Juda yaxshi, u yerda hayvonlarning nimalar bilan ovqatlanishini va ularni kimlar parvarish qilishini oʻz koʻzimiz bilan koʻramiz.

Xoʻja Nasriddin: Qani bolajonlar, hayvonot bogʻiga ketdik. Ie, bolajonlar barcha hayvonlar guruhimizda ekan-ku.

Bola: Bobojon, qani?

Xoʻja Nasriddin: Mana, hayvonlar rasmi chizilgan suratlar bor ekan-ku? Tarbiyachi: Toʻgʻri, bolalar, bizning guruhimizda hamma hayvonlar rasmi



chizilgan suratlar borku. Kelinglar, hozir har biringizga toʻrttadan tarqataman, doskaga esa hayvonot bogʻi jadvalini qoʻyaman.

Jadvalda ot, it, begemot, qoʻy, mushuk sigir, tulki, qoʻzichoq, boʻtaloq, tipratikan, kaltakesaklarning rasmlari joylashtirilgan.

Bolalar, sizlarning oldingizdagi varaqlarning, har biri bir hayvonot bogʻini bildiradi. Biz siz bilan hayvonlarni 4 ta qatorga joylashtirishimiz kerak. Hozir men har bitta hayvonning nomini boʻgʻinlayman. 1 boʻgʻinli hayvonlarni birinchi hayvonot bogʻiga, 2 boʻgʻinli hayvonlarni ikkinchi hayvonot bogʻiga, 3 boʻgʻinli hayvonlarni uchinchi hayvonot bogʻiga, 4 boʻgʻinli hayvonlarni toʻrtinchi hayvonot bogʻiga joylashtirasizlar.

Tarbiyachi har bitta hayvonning nomini boʻgмinlarga boʻlib aytadi, bolalar esa xayvonlarni tartibga koʻra joylashtiradilar.

Tarbiyachi: Mana bolajonlar, bizlar 4 ta hayvonot bogi Hosil qildik. Endi esa bolajonlar, biz siz bilan har bitta hayvonning nomi qaysi harf bilan boshlanishini oʻrganamiz.

Tarbiyachi: Bolalar, ot deganda birinchi harfning nomi nima ekan?

Bolalar: O xarfi.

Tarbiyachi: O harfi bilan yana nimalarning nomi bor ekan, qani kim aytadi? Bola: Olma, olcha, olxoʻri, olmaxon.

Tarbiyachi: Toʻgʻri. Sigir deganda qaysi harf birinchi aytilayapti?

Bolalar: S xarfi.

Tarbiyachi: Toʻgʻri bolajonlar, s xarfi birinchi aytilyapti. Qani yana s harfi bilan aytiladigan soʻzlar topaylikchi.

Bolalar: Salom, sabzi, sahro, samolyot.

Mashgʻulot davomida har bitta hayvonning nomi aytilganda izoh berib oʻtiladi. Hayvonlarning foydali tomonlariga e'tibor beriladi.

Darhaqiqat, ta'lim-tarbiya jarayonida bolaning iqtisodiy bilimdonligini ta'minlashni yuqori sinflardan emas, balki maktabgacha ta'lim bosqichidan boshlash har tomonlama maqsadga muvofiqdir.

#### Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. Toshkent, Oʻzbekiston, 2017. 484 b.
- 2. Валиева З.А. Экономическое воспитание старшиклассников в процессе профессиональной подготовки: Автореф. дисс... канд. пед. наук.-Москва: 1987.-16 с.
- 3. Valieva Z.A., Muhibov Y.U. Iqtisodalifbosi. Umumta'lim maktablarining 1-sinflari uchun oʻquv qoʻllanmasi.—T.: Sharq, 1997.—128 b.
  - 3. www.uzedu.uz
  - 4. www.eduportal.uz



#### MAKTABGACHA TA'LIM UZLUKSIZ TA'LIMNING POYDEVORI

#### D.SH.MIRZAYEVA.

BuxDU oʻaituvchisi

Maktabgacha ta'lim tizimini tubdan takomillashtirish, uning moddiy bazasini yangilash, malakali iqtidorli, mahoratli, zamonaviy kadrlar bilan ta'minlash bugungi kunning dolzarb masalalaridandir. Maqola maktabgacha ta'lim tizimi xodimlarining innovatsion axborot kommunikatsiya va pedagogika texnologiyalari sohasidagi bilim va malakasini oshirish, innovatsion ta'lim muhitini tashkil etish, boshqaruvning zamonaviy standartlarini ishlab chiqish va maktabgacha ta'lim sohasiga joriy etish, ta'lim-tarbiya jarayoniga ilgʻor axborot va pedagogika texnologiyalarini joriy etish masalariga bagʻishlanadi.

Tayanch soʻz va iboralar: mamlakat, harakatlar strategiyasi, huquqiy-me'yoriy, bolalar huquqlari.

Коренное совершенствование системы дошкольного образования, обновление ее материально-технической базы, обеспечение квалифицированными, талантливыми, современными кадрами являются одними из актуальных задач сегодняшнего дня. Статья направлена на совершенствование знаний и умений работников дошкольного образования в области инновационных информационных, коммуникационных и педагогических технологий, создание инновационной образовательной среды, разработку и внедрение современных стандартов управления в сфере дошкольного образования, вопросы внедрения информационно-педагогических технологий.

**Ключевые слова:** страны, стратегии действий, нормативно-правовых прав детей.

The radical improvement of the system of preschool education, updating its material and technical base, providing qualified, talented, modern personnel are some of the urgent tasks of today. The article is aimed at improving the knowledge and skills of preschool education workers in the field of innovative information, communication and pedagogical technologies, creating an innovative educational environment, developing and implementing modern management standards in the field of preschool education. questions of the introduction of information and pedagogical technologies.

**Key words: country,** action strategy, legal norms, children's rights

Hayotimizda hal qiluvchi ahamiyatga ega boʻlgan ta'limtarbiya tizimi haqida gapirganda, Abdulla Avloniy bobomizning dono fikrlarini takror va takror aytishga toʻgʻri keladi; ta'limtarbiya-biz uchun hayot-mamot masalasidir. Qaysi sohani olmaylik biz zamonaviy yetuk kadrlarni tarbiyalamasdan turib biron-bir oʻzgarishga, farovon hayotga erishaolmaymiz. Bunday kadrlarni, millatning sogʻlom genofondini tayyorlash, avvalo, maktabgacha ta'lim tizimidan boshlanadi.

Sh.Mirziyoyev,

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti.